

O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI.

Dildora Kayumjonova

Turan xalqaro universiteti

2-bosqich talabasi

dkayumjonova@mail.ru

Annotatsiya: Quyidagi maqolada "Yashil" iqtisodiyot tushunchasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va dolzarbligi keng yoritilgan. Dastlabki iqtisodiy qarashlar — fiziokratlar ta'limotidan boshlab, zamonaviy global inqirozlar, ekologik muammolar va iqlim o'zgarishlari ta'sirida shakllangan yashil iqtisodiy modelga qadar bo'lgan jarayonlar tahlil qilinadi. Xususan, BMTning atrof-muhitga oid tashabbuslari, 2008-yilgi global inqiroz fonida UNEP tomonidan ilgari surilgan strategiyalar, xalqaro tajribalar hamda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi chuqur ko'rib chiqiladi. Maqolada yashil iqtisodiyotning asosiy tamoyillari — uglerod chiqindilarini kamaytirish, energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muhim yo'naliishlar sifatida ko'rsatilgan. Shuningdek, barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik, yashil texnologiyalar va xalqaro reytinglardagi o'rinalar orqali mamlakatlar yutuqlari tahlil etilgan. Yashil iqtisodiyotning global va milliy ahamiyati, u orqali kelajak avlodlar uchun sog'lom va barqaror muhit yaratish zarurati asoslanadi.

Kalit so'zlar: Degredatsiya, sof o'sish, ekotizimlar, resurs, global muammolar, ekologik xavsizlik, Rio konferensiya, ekologik taqchilik, iqtisodiy o'sish, barqaror rivojlanish, UNEP, biologik xilma-xillik, yashil iqtisodiyot, inqiroz, "Yashil" o'sish indeksi, yashil sektorlar, moliyaviy mexanizmlar, sanoat chiqindilari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, uglerod chiqindilar, energiya samaradorligi, tabiiy resurslar, investitsiyalar, issiqxona gazlari "Yashil bino", global yashil o'sish, iqtisodiy strategiya, chiqindilarni qayta ishlash, infratuzilma, energiyani samaradorligi, soliq imtiyozlari, ijtimoiy barqarorlik, yashil makon.

Kirish. 1989-yilda "Yashil" iqtisodiyot tushunchasi keng qo'llana boshladi, biroq insonlar uni turlicha tushunadilar. Dastlabki qarashlarda, fiziokratlar ta'limotiga ko'ra, "yashil" iqtisodiyotning shakllanishi uchun yagona boylik manbai — bu tabiatdir. Asosiy g'oyaga ko'ra, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng muhim sohasi bo'lib, aynan shu sohada ishlab chiqarilgan mahsulotlar daromadning xarajatlardan yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Bugungi kunda "yashil" iqtisodiyot — bu mamlakat tabiatini muhofaza qilish va yaxshilashga xizmat qiluvchi iqtisodiy faoliyatning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinmoqda. Ba'zi tadqiqotlarda esa bu atama tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar hamda ekotizimlarni anglatadi. "Yashil" iqtisodiyot — bu insonlar farovonligi va ijtimoiy tenglikni oshirishga xizmat qiluvchi, shu bilan birga ekologik xavf-xatarlar hamda tabiiy resurslarning kamayishi (ekologik taqchillik) darajasini sezilarli darajada pasaytirishga qaratilgan iqtisodiy tizimdir. U tabiiy muhitga bog'liq tarkibiy qismining yo'nalishi bo'lib, unda o'zi mavjud bo'lgan tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali jamiyat farovonligini saqlash ko'zda tutiladi.

Adabiyotlar tahlili. Yashil iqtisodiyot 20-asrning oxiriga kelib, atrof-muhitning ifloslanishi, iqlim o'zgarishi va tabiiy resurslarning tugashi kabi global muammolarni yechishga harakat qilgan holda shakllandi. Bu iqtisodiy model, avvalambor, atrof-muhitni saqlash va iqtisodiy o'sishni barqaror ravishda amalga oshirishni maqsad qilgan. Yashil iqtisodiyotning rivojlanishi 1980-yillarda "barqaror rivojlanish" kontseptsiyasining shakllanishi bilan boshlangan. Ushbu kontseptsiyaning asosiy maqsadi iqtisodiy o'sish, ekologik barqarorlik va ijtimoiy adolatni bir-biri bilan uyg'unlashtirish edi. 1987-yilda nashr etilgan "Brundtland hisobotida" (Our Common Future) barqaror rivojlanishning asosiy tamoyillari belgilangan. 1992-yilda Rio de Janeyroda o'tkazilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Konferensiyasi, ya'ni Rio Konferensiyasi, yashil iqtisodiyotning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu konferensiya ekologik muammolarni global miqyosda hal qilish va iqtisodiy o'sishni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan amalga oshirish zaruratini yanada kuchaytirdi. Konferensiyada atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishning yangi

yo‘nalishlari belgilandi. Rio Konferensiyasidan keyin qator xalqaro kelishuvlar, masalan, Kyoto protokoli, ekologik barqarorlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan siyosatlarning shakllanishiga turtki berdi. 2008-yildan keyin iqtisodiy inqiroz va iqlim o‘zgarishi muammolari jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda atrof-muhitning saqlanishi, tabiiy resurslarning oqilona foydalanilishi va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash masalalari yanada dolzarb bo‘lib qoldi. Iqlim o‘zgarishi va iqtisodiy inqirozning jahon bo‘ylab keltirgan salbiy oqibatlari yashil iqtisodiyotga bo‘lgan talabni oshirdi. Bu esa, o‘z navbatida, barqaror rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishga olib keldi. 2008-yil oxirida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi — UNEP tomonidan "yashil sektorlar"ni rag‘batlantirish va loqaydlikni o‘zgartirish uchun investitsiya siyosati qabul qilindi. Ushbu dastur, iqtisodiyot tarmoqlari va atrof-muhitni uyg‘unlashtirishga asoslangan yashil sektorlani tahlil qilish va qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan keng qamrovli amaliy ish mexanizmi sifatida taqdim etildi. UNEPning “yashil” iqtisodiyot g‘oyasi aynan 2008-yilda butun dunyo iqlim inqirozi, biologik xilma-xillik inqirozi (issiqxona gazlari chiqindilarining ko‘payishi va atrof-muhit muvozanatining yo‘qolishi), yoqilg‘i inqirozi (2007-2008 yillarda yoqilg‘i narxlarining keskin o‘sishi), oziq-ovqat inqirozi (oziq-ovqat narxlarining oshishi, ba’zi hududlarda oziq-ovqat tanqisligi) va suv inqirozi (suv tanqisligi) kabi bir qator global inqirozlar va 2008-2009 yillardagi eng og‘ir moliyaviy inqiroz hamda global iqtisodiy tanazzul davrida paydo bo‘ldi. Bu holatlarda yashil iqtisodiyotga bo‘lgan ehtiyoj yanada kuchaydi, chunki bu model nafaqat atrof-muhitni saqlash, balki global inqirozlarni yengish va iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etdi. Yashil iqtisodiyotning asosiy maqsadi iqtisodiy o‘sishni atrof-muhitga zarar yetkazmasdan amalga oshirish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish va resurslarni samarali ishlatishni ta‘minlashdir. UNEP (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo‘yicha dasturi) ning asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlodlar manfaati uchun atrof-muhitni muhofaza qilish va yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishdan iborat. Dasturning shiori – "Atrof-

muhit taraqqiyot manfaati uchun" bo'lib, bu uning atrof-muhitni saqlash va ekologik barqarorlikni ta'minlashdagi maqsadlarini ifodalaydi. UNEPning shtab-kvartirasi Keniyaning Nayrobi shahrida joylashgan bo'lib, uning oltita yirik vakolatxonasi va turli mamlakatlarda mintaqaviy vakolatxonalar mavjud. UNEP global va mintaqaviy darajadagi barcha ekologik muammolarni hal qilish uchun javobgar tashkilot sifatida faoliyat yuritadi. UNEP faoliyati Yer atmosferasi, dengiz va quruqlik ekotizimlarining muhofazasi, shuningdek, iqlim o'zgarishi, biologik xilma-xillikni saqlash va resurslardan ehtiyojkorlik bilan foydalanish kabi sohalarda ko'plab loyihalarni o'z ichiga oladi. UNEP ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 29 ta xalqaro konvensiyani ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Tashkilot tez-tez hukumatlar va xalqaro nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda ishlaydi va ko'plab atrof-muhitni saqlash loyihalarini homiylik qiladi hamda ularni amalga oshirishga yordam beradi. Shuningdek, UNEP, potentsial xavfli kimyoviy moddalar, transchegaraviy havo ifloslanishi va xalqaro yuk tashish yo'llarining ifloslanishi kabi muammolar bo'yicha xalqaro tavsiyalar va hujjatlar ishlab chiqishda ham ishtirok etadi. UNEPning ushbu faoliyatlar ekologik xavfsizlikni ta'minlash va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish borasidagi global maqsadlarga erishishga qaratilgan. Bundan tashqari, BMT Yevropa iqtisodiy komissiyasi (BMT YEIK) va Yevropada Xavfsizlik va Hamkorlik Tashkiloti (YEXHT) bilan yaqin hamkorlikda ishlovchi UNEP, transchegaraviy kontekstda atrof-muhitga ta'sirini baholashni talab qiladigan "Espoo konvensiyasi"ni ishlab chiqishda ishtirok etdi. Ushbu konvensiya 1991-yilda Finlyandiya, Espoo shahrida imzolangan va 44 davlat hamda Yevropa Ittifoqiga tijorat loyihalarining atrof-muhitga ta'sirini baholashni majburiy qilib qo'yadi. Bu konvensiya, davlatlarning transchegaraviy ekologik ta'sirni hisobga olishlari va o'zaro hamkorlikda atrof-muhitni himoya qilishlarini ta'minlashga qaratilgan. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da belgilangan vazifalarni amalga oshirish, O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan

foydanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirishga qaratilgan. Ushbu strategiya, ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqtisodiy o'sishni barqaror ravishda amalga oshirishga yo'naltirilgan. O'zbekistonning "yashil" iqtisodiyotga o'tishi, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, energiya samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. "Yashil" iqtisodiyot konsepsiysi ko'pgina mamlakatlar uchun strategik ustuvor vazifa sifatida yuzaga chiqmoqda. Bu konsepsiya nafaqat energiya manbalarining barqarorligini ta'minlashni, balki yashil bino-inshootlar, barqaror transport tizimlari, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishni ham o'z ichiga oladi. Bu bilan birga, qattiq maishiy chiqindilarni boshqarish, chiqindilardan samarali foydalanish va resurslarni tejashga qaratilgan chora-tadbirlar ham muhim o'rinn tutadi. Xalqaro tashkilotlar tomonidan dunyoda va alohida mamlakatlarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish va "yashil o'sish"ga o'tish holatini baholash imkonini beruvchi turli ko'rsatkichlar to'plamlari ishlab chiqilgan bo'lib, amaliyotda qo'llanib kelinmoqda. Bu ko'rsatkichlar davlatlar va tashkilotlarga yashil iqtisodiyotning samaradorligini, resurslarni tejash darajasini, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni va ekologik barqarorlikni o'lchashga yordam beradi. "Yashil" o'sish indeksi bo'yicha, Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya kabi mamlakatlar eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu davlatlar ekologik barqarorlik, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, resurslarni samarali ishlatish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash borasida katta yutuqlarga erishgan 1990-yillarning oxiri va 2000-yillarning boshlariga kelib, ushbu yondashuv energiya va iqtisodiy samaradorlikni oshirish, energiya resurslaridan foydalanuvchilarining xarajatlarini kamaytirish orqali ekologik ko'rsatkichlarni sezilarli darajada yaxshilashga olib keldi. Ishlab chiqarishda texnologik modernizatsiya, energiya tejovchi tizimlarning joriy qilinishi va ekologik nazoratning kuchaytirilishi nafaqat muhitni muhofaza qilishda, balki iqtisodiy foyda olishda ham muhim o'rinn egallay boshladи. "Yashil" iqtisodiyotning eng asosiy maqsadlaridan biri — tabiat va uning boyliklarini nafaqat bugungi avlod ehtiyojlari uchun, balki kelajak avlodlarga ham asrab-avaylab yetkazishdir. Bu yondashuv, tabiiy

resurslardan foydalanishda mas‘uliyatli bo‘lish, ekologik muvozanatni saqlash va iqtisodiy rivojlanishning uzoq muddatli barqarorligini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish tobora dolzARB masalaga aylanmoqda. Global miqyosda yuzaga kelayotgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik inqirozlar — ishlab chiqarishning pasayib ketishi, aholining iste‘mol darajasining kamayishi, muammoli va ekologik xavf ostidagi hududlarning ko‘payishi — jamiyatda yangi yondashuvlar, g‘oyalar va tamoyillar asosida barqaror rivojlanish modelini shakllantirish zaruratini tug‘dirmoqda.

Hozirgi kunda AQSh, Germaniya, Buyuk Britaniya, Frantsiya, Yaponiya, Koreya mamlakatlarda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda quyidagi asosiy choralardan foydalanmoqdalar: energiya, transport, qurilish, qishloq xo‘jaligi, turizm, madaniyat, chiqindilami qayta ishslash kabi “yashil” iqtisodiyotning sohalariga investitsiya xarajatlarini ko‘paytirish; “yashil” iqtisodiyot va barqaror rivojlanishning imkoniyatlari va afzalliklari to‘g‘ risidagi bilimlar va iqtisodiy ongning davlat organlarining boshqaruv salohiyatini oshirishda yashil iqtisodiyotda xizmat qiluvchi ishchi kuchini o‘qitish; ekologik toza oziq - ovqat mahsulotlarini kengaytirish-ekologik yorliqlardan foydalanish; qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslarga davlat xarajatlarini kamaytirish, “yashil” iqtisodiyot modeliga o‘tishni ta‘minlaydigan tashkilotlar va muassasalar tarmog‘ ini rivojlantirish. Bunda tovarlar va xizmatlar uchun qoidalar va standartlami e’lon qilish, ekologik toza mahsulotlami ishlab chiqarish va sotish uchun soliq imtiyozlarini oshirish, tovarlar va xizmatlar, ilmiy izlanishlami qo‘llab - quvatlash, ekologik toza texnologiyalarni ishlab chiqish va qo‘llash chora - tadbirlar tizimini yaratish; 146 issiqxona gazlari chiqindilari atrof - muhitga salbiy ta’simi minimallashtirish maqsadida soliqlar, energiyadan samarasiz foydalanish uchun yig‘ imlar, mavjud boMgan tovarlar uchun soliqlardan foydalanish ; barqaror rivojlanishga ta’sir ko‘rsatadigan iqtisodiy faoliyatni boshqarishning majburiy mexanizmini o‘matish maqsadida aholi hamkorligini mustahkamlash. Rivojlanayotgan mamlakatlarda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni bir qator

qiyinchiliklar bilan kechmoqda. Bunga sabab, avvalo, bu mamlakatlarda texnologik taraqqiyot darajasining pastligi, ekologik jihatdan samarali texnologiyalar va infratuzilmalarning yetarli emasligi, shuningdek, tabiiy resurslardan isrofgarchilik bilan foydalanish holatlari keng tarqalganidir. Natijada, bu holatlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni pasaytiradi, balki atrof-muhit va ekotizimlarga jiddiy zarar yetkazadi. “Yashil o’sish” konsepsiyasiga o’tish esa murakkab va ko‘p yo‘nalishli harakatni talab qiladi. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Texnologik innovatsiyalarni joriy etish;
- Ekotizimlarni tiklash va muhofaza qilish;
- Tabiiy resurslardan samarali foydalanish;
- Kam uglerodli texnologiyalarga o’tish.

Bunday tub o‘zgarishlar esa katta hajmdagi kapital qo‘yilmalarni talab qiladi, bu esa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun alohida e‘tiborni talab qiluvchi masala. Chunki bu davlatlar hali ham ocharchilik, qashshoqlik, sog‘liqni saqlash va ta‘lim tizimlari bilan bog‘liq muammolarni hal qilish, ish o‘rinlarini yaratish va ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashga resurs yo‘naltirishga majbur. Shunday bo‘lsa-da, “yashil o’sish” strategiyasi aynan shu muammolarni yechishga yordam beradi. Iqtisodiy rivojlanish bilan birga, ekologik barqarorlikni ta‘minlash orqali aholi salomatligini yaxshilash, yangi ish o‘rinlarini yaratish va uzoq muddatli iqtisodiy foydani kafolatlash mumkin. Jahon Bankining hisob-kitoblariga ko‘ra: Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun yashil iqtisodiyot sektorlarida, xususan qurilish, energetika va transport sohalarida infratuzilmani rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan sarmoya 563 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi. 2030-yilgacha bo‘lgan davrda esa iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha investitsiyalar global yashil iqtisodiyotga yo‘naltiriladigan umumiy sarmoyalarning 50 foizini tashkil qilishi kutilmoqda. Ichki resurslarga tayangan holda ko‘plab rivojlanayotgan davlatlar hozirda “yashil o’sish” sari mustaqil qadamlar qo‘ymoqda. Ular qishloq xo‘jaligi, o‘rmon xo‘jaligi va cheklangan tabiiy resurslarni qazib olish kabi sohalarda ekotizimlarni tiklashga e‘tibor qaratmoqda. Xitoy tajribasi

bunga yaqqol misoldir: 2005-yilda Xitoyda “Qayta tiklanuvchi energiya to‘g‘risidagi qonun” qabul qilinib, mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi ilk katta qadamlardan biri bo‘ldi. Ushbu qonun quyidagi moliyaviy mexanizmlarni o‘z ichiga oladi:

- Milliy jamg‘arma orqali qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlanтирishni moliyalashtirish;
- Kreditlar ajratish;
- Shamol va quyosh energiyasi loyihalari uchun soliq imtiyozlari.

Xitoyning bu yondashuvi “sof o‘sish” strategiyasi asosida yashil iqtisodiy o‘zgarishlarni jadallashtirish, energiyaga bo‘lgan ehtiyojni qondirish va iqlim barqarorligini saqlab qolish bo‘yicha yaxshi namuna bo‘la oladi. Yashil iqtisodiyot – bu iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydigan, ammo atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan iqtisodiyot modelidir. Bu model nafaqat tabiatni asrashni, balki aholi salomatligini himoya qilishni, barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishni ham ko‘zda tutadi. Yashil iqtisodiyot quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Ekologik toza va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish;
- Issiqxona gazlari ajralishini kamaytirish;
- Resurslarni samarali va tejamkor ishlatish;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish;
- Yashil texnologiyalarni joriy etish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash

O‘zbekiston hududining katta qismi cho‘l va dashtlardan iborat bo‘lib, iqlim o‘zgarishlari, suv tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi kabi muammolar bilan duch kelmoqda. Aynan shuning uchun ham mamlakatda yashil iqtisodiyotga o‘tish nafaqat dolzarb, balki hayotiy zaruratga aylanmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiy o‘sish va sanoatning jadal rivojlanishi ham ekologik muammolarning kuchayishiga olib kelmoqda. Shu bois, O‘zbekiston o‘z iqtisodiy strategiyasini “yashil” yo‘nalishga

o‘zgartirib, ekologik barqarorlikni rivojlanishning ajralmas qismi sifatida belgiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi”ga oid qarori asosida 2030-yilgacha mo‘ljallangan milliy strategiya ishlab chiqildi. Ushbu hujjatda quyidagi maqsadlar belgilangan:

- Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini 25 foizga yetkazish;
- Issiqxona gazlari chiqindilarini sezilarli darajada kamaytirish;
- Energiya samaradorligini 20 foizga oshirish;
- Suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish;
- “Yashil bino” va ekologik qurilish standartlarini joriy etish;
- “Yashil makon” loyihasi doirasida 200 million daraxt ekish.

Davlat tomonidan energiyani tejash, chiqindilarni qayta ishlash, ekologik toza transport vositalarini joriy etish, sanoatda zamonaviy “yashil” texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha keng ko‘lamli loyihalar amalga oshirilmoqda. Yashil iqtisodiyot sohasida xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik alohida ahamiyatga ega. Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, BMT Taraqqiyot dasturi kabi tashkilotlar bilan amalga oshirilayotgan loyihalar doirasida O‘zbekistonga ekologik toza texnologiyalarni joriy etish uchun millionlab dollar miqdorida grant va imtiyozli kreditlar ajratilmoqda. Misol uchun, Global Yashil O‘sish Instituti ko‘magida Koreya agentligi bilan 6,5 million AQSH dollarilik texnik yordam ajratilgan bo‘lsa, Germaniya hukumati 20 million yevrolik grant ajratgan. Hozirgi davrda iqlim o‘zgarishlari, ekologik muammolar va tabiiy resurslarning kamayib borishi butun dunyo davlatlarini o‘z iqtisodiy faoliyatini qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda. Insoniyat endi iqtisodiy o‘sish yo‘lida tabiatga zarar yetkazmaslik, balki uni asrash, ekologik muvozanatni saqlab qolish kabi yondashuvlarni ustuvor vazifa qilib olmoqda. Bu esa yangi iqtisodiy model – yashil iqtisodiyot tushunchasini kun tartibiga olib chiqdi. Bugungi kunda ko‘plab davlatlar ushbu yo‘nalishda aniq strategik yo‘l tanlab, uzoq muddatli rejalari asosida yashil taraqqiyot sari harakat qilmoqda. O‘zbekiston ham bu borada o‘zining strategik yo‘lini belgilab, izchil harakat qilmoqda. Yashil

iqtisodiyot tomon strategik yo‘l” deganda, mamlakatning iqtisodiyotni ekologik xavfsiz, resurslarga tejamkor va ijtimoiy adolatli yo‘nalishda rivojlantirishga qaratilgan aniq siyosiy, iqtisodiy va huquqiy dasturlar majmuasi tushuniladi. Bunda asosiy maqsad — ekologik barqarorlikni saqlagan holda iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, kelajak avlodlar uchun tabiiy boyliklarni asrab qolish, hamda ijtimoiy-iqtisodiy farovonlikka erishishdir.

Xulosa: O‘zbekistonning “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi bu boradagi salmoqli qadamlarni tashladi, lekin hali amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ko‘plab vazifalar mavjud. Umuman olganda, yashil iqtisodiyot barqaror rivojlanishning muhim asosi bo‘lib, u nafaqat ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, balki ijtimoiy adolat va iqtisodiy farovonlikni ham oshirishga xizmat qiladi. Bu jarayonning davom ettirilishi va kengaytirilishi, kelajak avlodlar uchun yanada sog‘lom va barqaror atrof-muhit yaratishga imkon beradi. . Bu davrda atrof-muhitning saqlanishi, tabiiy resurslarning oqilona foydalanilishi va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash masalalari yanada dolzarb bo‘lib qoldi. Iqlim o‘zgarishi va iqtisodiy inqirozning jahon bo‘ylab keltirgan salbiy oqibatlari yashil iqtisodiyotga bo‘lgan talabni oshirdi. Bu esa, o‘z navbatida, barqaror rivojlanish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan iqtisodiy faoliyatni kuchaytirishga olib keldi. Ushbu maqolada “Yashil”iqtisodiyotda 2008-yildan keyin iqtisodiy inqiroz va iqlim o‘zgarishi muammolari jahon iqtisodiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Biz qayta ishlab chiqarish va o’rin bosar tovar hamda mahsulotlardan foydalanish orqali tabiiy resurslarni tejashimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son
2. S.N. Kashimova. Yashil iqtisodiyot darslik// -T.: “Ma’rifat”, 2024.
3. Yashil iqtisodiyot: Darslik. /A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiev va boshqalar. – Toshkent.: “Universitet”, 2020. -262 b.